


QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2018 yil yanvar-dekabr)

2018 yil yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, respublikada tashqi savdo aylanmasi 736,5 mln. AQSh dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 14,9 %ga o'sdi. Shu jumladan, eksport hajmi 456,0 mln. AQSh dollarga va import hajmi 280,5 mln. AQSh dollariga etdi. Tashqi savdo saldosini 175,5 mln. AQSh dollarini tashkil qildi.


Qoraqalpog'iston Respublikasining tashqi savdo aylanmasi

(mln. AQSh dollari)




Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida, respublika tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 39,4% ni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 36,1 % ga oshgan, boshqa davlatlarning ulushi esa 60,6% bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4,3% ga oshgan. Shuningdek, eksport hajmida MDH davlatlari 44,4 %ni, boshqa davlatlar 55,6%ni va import hajmida MDH davlatlari 20,5 %ni, boshqa davlatlar 79,5%ni tashkil qildi.

**2018 yil yanvar-dekabrida respublika tashqi savdo aylanmasida
MDH va boshqa davlatlarning ulushi**
(umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)



Shu bilan birga ta'kidlab o'tish kerakki, 2018 yilning dekabr oyida eksport qilingan tovar va xizmatlar, noyabr oyiga nisbatan 0,5 mln. AQSh dollarga kamroq eksport qilindi va 35,9 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Tovar va xizmatlar importi hajmi esa 38,5 mln. AQSh dollarini tashkil qilgan bo'lib, bu esa noyabr oyiga nisbatan 1,8 mln. AQSh dollariga ko'proqdir.

**2018 yilda tovar va hizmatlarning oylik
eksport-import ko'rsatkichlari dinamikasi**
(mln. AQSh dollari)



2018 yil yanvar-dekabr oylarida respublika tashqi savdo aylanmasida yuqori ulushga ega davlatlar ketma-ketligi joriy yilning yanvar oyidan buyon deyarli o'zgarishsiz qolmoqda.

**Respublika tashqi savdo aylanmasida
yuqori ulushga ega davlatlar**

(mln. AQSh dollari)

Davlat nomi	Tashqi savdo aylanmasi	Eksport	Import	Tashqi savdo aylanmasi	
				ulushi, %	o'sish sur'ati, %
Rossiya	187,0	135,6	51,4	25,4	125,2
Xitoy	165,6	106,5	59,1	22,5	91,6
Turkiya	114,8	97,8	17,0	15,6	90,1
Qozog'iston	69,0	55,7	13,3	9,4	149,5
Koreya Respublikasi	47,4	8,1	39,3	6,4	164,0
Latviya	40,5	25,1	15,4	5,5	94,6
Ukrayna	22,0	3,4	18,6	3,0	2,3 k
Germaniya	12,4	0,5	11,9	1,7	3,9k
Shvetsariya	9,4	-	9,4	1,3	25,3 k
Vietnam	8,4	1,0	7,4	1,1	12,1 k
Yaponiya	6,5	-	6,5	0,9	4,7 k
Estoniya	5,4	3,8	1,6	0,7	2,5 k
Qirg'iziston	4,8	4,7	0,1	0,7	83,2

Respublikamizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2018 yil yanvar-dekabr oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 39,4 %ni tashkil etdi hamda tashqi savdo aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 36,1 % ga oshdi. Boshqa xorijiy davlatlarning respublika tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2017 yilning yanvar-dekabr oylarida 66,8 %ni tashkil qilgan bo'lsa, joriy yilning ushbu davrida esa tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 60,4 %ga etdi.

Qoraqalpog'iston Respublikasining ayrim hamkor davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi dinamikasi

(mln.AQSh dollari)

Davlat nomi	2016 yil yanvar-dakabr	2017 yil yanvar-dakabr	2018 yil yanvar-dakabr
Rossiya	55,9	149,4	187,0
eksport	30,5	108,4	135,6
import	25,4	41,0	51,4
saldo	5,1	67,4	84,2
Xitoy	197,3	180,8	165,6
eksport	169,3	119,7	106,5
import	28,0	61,1	59,1
saldo	141,3	58,6	47,4
Turkiya	118,4	127,4	114,8
eksport	116,3	118,4	97,8
import	20,1	90,0	17,0
saldo	96,2	28,4	80,8
Qozog'iston	24,7	46,1	69,0
Eksport	21,1	43,4	55,7
Import	3,6	2,7	13,3
Saldo	17,5	40,7	42,4
Koreya Respublikasi	55,9	28,9	47,4
Eksport	30,5	1,3	8,1
Import	25,4	27,6	39,3
Saldo	5,1	-26,3	-31,2
Latviya	17,7	42,9	40,5
Eksport	17,4	41,9	25,1
import	0,3	1,0	15,4
saldo	17,1	40,9	9,7


Davlat nomi	2016 yil yanvar-dakabr	2017 yil yanvar-dakabr	2018 yil yanvar-dakabr
Ukraina	6,2	9,4	22,0
eksport	0,2	3,4	3,4
import	60,0	6,0	18,6
saldo	-59,8	-2,6	-15,2
Germaniya	3,7	3,2	12,4
eksport	0,5	0,4	0,5
import	3,2	2,8	11,9
saldo	-2,7	-2,4	-11,4
Shvetsariya	0,6	0,4	9,4
eksport	0,6	-	-
import	-	0,4	9,4
saldo	0,6	-0,4	-9,4
Vietnam	0,1	0,7	8,4
eksport	-	0,6	1,0
import	0,1	0,1	7,4
saldo	-0,1	0,5	-6,4
Yaponiya	4,5	1,4	6,5
eksport	-	-	-
import	4,5	1,4	6,5
saldo	-4,5	-1,4	-6,5
Estoniya	-	2,2	5,4
eksport	-	1,3	3,8
import	-	0,9	1,6
saldo	-	0,4	2,2

EKSPORT




2018 yil yanvar-dekabr oylarida eksport hajmi 456,0 mln. AQSh dollarga teng bo'ldi. Eksport tarkibida tovarlar 99,4 % ulushga ega, bular asosan kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (87,9 %), oziq-ovqat mahsulotlari (6,5 %) guruhlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Tovar va xizmatlar eksporti tarkibi (mln.AQSh dollari)



2017 yil
yanvar-dekabr



2018 yil
yanvar-dekabr



Tovar va xizmatlar eksporti ulushi (%)




Eksport tarkibi

	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %
Eksport	456,0	98,6	100,0	202,3	124,4	100,0	253,6	84,6	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari	29,5	113,1	6,5	4,3	116,2	2,1	25,2	112,5	9,9
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	400,9	100,2	87,9	191,7	129,7	94,8	209,1	82,9	82,5
Energiya manbaalari va neft mahsulotlari	9,3	80,3	2,0	2,1	5,0 k	1,0	7,2	64,9	2,8
Mashina va asbob-uskunalar	0,1	9,9 k	-	0,1	-	0,1	-	-	-
Xizmatlar	2,6	107,4	0,6	1,8	33,3	0,9	0,8	150,0	0,3
Boshqalar	13,6	104,2	3,0	2,3	53,6	1,1	11,3	152,7	4,5

Eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning oylar kesimidagi o'sish sur'atlari bo'yicha quyida keltirilgan ma'lumotlardan shuni ko'rishimiz mumkinki, joriy yilning yanvar-dekabr oylari davomida eng yuqori o'sish sur'atlari mart va noyabr oylarida kuzatilgan.

Tovar va xizmatlar eksportining o'sish sur'atlari (o'tgan oyga nisbatan, %)




Shuningdek, tovar va xizmatlar eksporti o'sish sur'atlarining tahliliga asosan, 2018 yilning dekabr oyida eksport qilingan tovar va xizmatlar noyabr oyiga nisbatan 29,2 %ga kamaygan.

Xizmatlar eksporti hajmi 2,6 mln. AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining 0,6 %ini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 7,4 %ga o'sganligi kuzatildi.


Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi moliyaviy xizmatlar (38,3 %), safarlar (32,8 %), transport xizmatlari (16,7 %) va qurilish xizmatlari (11,4 %) hissasiga to'g'ri keladi.

Xizmatlar eksporti tarkibi, (%)




Tovar va xizmatlar eksporti dinamikasi tahliliga ko'ra, 2018 yilning dekabr oyi mobaynida eksport qilingan tovarlar hajmi, noyabr oyiga nisbatan 0,7 mln. AQSh dollariga kam eksport qilindi va 35,5 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar eksporti esa 0,4 mln. AQSh dollarga etgan.

2018 yilda tovarlar va xizmatlar eksporti dinamikasi
(oylar kesimida, mln. AQSh dollari)




Respublika eksportida asosiy hamkor davlatlarning ulushi
(yanvar-dekabr)

2017 YIL



2018 YIL



Eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning asosiy qismi Xitoy Xalq Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi hissasiga to'g'ri kelmoqda. Bu esa umumiy eksport hajmining 53,1 % ini tashkil qiladi. Xitoy Xalq Respublikasi va Rossiya Federatsiyasiga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga nazar tashlasak, asosan kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar hamda oziq-ovqat mahsulotlari guruhlaridan iborat ekanligini ko'rishimiz mumkin.

**Qoraqalpog'iston Respublikasining
asosiy hamkor davlatlarga amalga oshirgan eksport hajmi**

Davlat nomi	Mln. AQSh doll.		Ulushi, %		O'rni	
	2017 y.	2018 y.	2017 y.	2018 y.	2017 y.	2018 y.
Rossiya	108,3	135,6	23,4	29,7	3	1
Xitoy	119,7	106,5	25,9	23,4	1	2
Turkiya	118,4	97,8	25,6	21,4	2	3
Qozog'iston	43,4	55,7	9,4	12,2	4	4
Latviya	41,9	25,1	9,1	5,5	5	5
Koreya Respublikasi	1,3	8,1	0,3	1,8	8	6
Qirg'iziston	5,8	4,7	1,3	1,0	6	7
Iroq	0,8	4,2	0,2	0,9	11	8
Estoniya	1,3	3,8	0,3	0,8	9	9
Ukraina	3,4	3,5	0,7	0,8	7	10
Tojikiston	0,9	2,2	0,2	0,5	10	11
BAA	0,6	1,5	0,1	0,3	12	12

Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti

2018 yilning yanvar-dekabr oylarida jami 17,9 ming tonnadan ziyod meva-sabzavot mahsulotlari 4,5 mln. AQSh dollariga eksport qilindi (o'sish sur'ati - 8,4%). Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida 15,0 ming tonnadan ko'proq sabzavotlar 2,6 mln. AQSh dollariga yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 9,4 ming tonnaga ko'p miqdorda eksport qilingan.

Shuningdek, 1,3 ming tonna meva va rezavorlar 1,1 mln. AQSh dollariga eksport qilingan bo'lib, eksport hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,5 ming tonnaga kamaygan.

Meva-sabzavot mahsulotlarining tarkibi




Shuni aytib o'tish joizki, mamlakatimizda eksport salohiyatini kengaytirish, yangi bozorlarni o'zlashtirish natijasida meva-sabzavot mahsulotlari, uzum, poliz, dukkakli ekinlar, shuningdek, quritilgan sabzavot va mevalarni eksport qilish hajmi oshib bormoqda. Jumladan, 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida meva-rezavorlar hamda sabzavotlar eksport hajmi 3,7 mln.AQSh dollariga etdi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 19,5 %ga o'sgan).

Respublikamizda yetishtirilgan meva va sabzavot mahsulotlarining asosiy bozorlari eksport geografiyasi

Davlat nomi	2017 yil yanvar-dekabr			2018 yil yanvar-dekabr		
	ming tonna	mln. AQSh doll.	ulushi, %	ming tonna	mln. AQSh doll.	ulushi, %
Qozog'iston	6,3	1,9	45,0	16,3	3,5	76,9
Rossiya	2,1	1,4	32,3	0,9	0,6	12,7
Pokiston	-	-	-	0,3	0,2	4,3
Afg'oniston	0,3	0,3	6,6	0,1	0,1	2,3


2018 yil yanvar-dekabrida meva va sabzavot mahsulotlarining tarkibi (umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)




IMPORT

Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida import hajmi 280,5 mln. AQSh dollariga (o'sish sur'ati 57,0 %) teng bo'ldi. Import tarkibida eng katta ulush mashina va asbob uskunalar (51,3 %) va kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (14,5 %) guruhlariga hisobiga to'g'ri keldi.

Tovar va xizmatlar importi tarkibi (mln.AQSh dollari)



Tovar va xizmatlar importi ulushi (%)




Import tarkibi

	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %
Import	280,5	157,0	100,0	87,5	173,9	100,0	193,0	150,3	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari	11,8	3,8 k	4,2	11,4	7,6 k	13,0	0,4	26,7	0,2
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	40,6	31,4	14,5	4,6	95,8	5,3	36,0	135,3	18,7
Energiya manbaalari va neft mahsulotlari	7,1	129,3	2,5	1,4	2,8 k	1,6	5,7	123,9	2,9
Qora va rangli metallar	6,0	109,1	2,1	2,9	107,4	3,3	3,1	110,7	1,6
Mashina va asbob-uskunalar	143,9	172,9	51,3	23,9	2,3 k	27,3	120,0	164,4	62,2
Xizmatlar	14,5	185,9	5,2	5,0	2,6 k	5,7	9,5	161,0	4,9
Boshqalar	56,6	132,5	20,2	38,3	133,4	43,8	18,3	130,7	9,5

Import qilingan tovar va xizmatlarning oylar kesimidagi o'sish sur'atlari bo'yicha quyida keltirilgan ma'lumotlardan shuni ko'rishimiz mumkinki, joriy yilning yanvar-dekabr oylari davomida eng yuqori o'sish sur'atlari mart, avgust va noyabr oylarida kuzatilgan.

Tovarlarni va xizmatlarni importining o'sish sur'atlari dinamikasi (o'tgan oyga nisbatan, %)




Shuningdek, tovar va xizmatlar importi o'sish sur'atlarining tahliliga asosan, 2018 yilning dekabr oyida import qilingan tovar va xizmatlar oktabr oyiga nisbatan 4,9 %ga oshgan.

Qoraqalpog'iston Respublikasiga asosiy hamkor davlatlardan amalga oshirilgan import hajmi

Davlat nomi	Mln. AQSh doll.		Ulushi, %		O'zni	
	2017 y.	2018 y.	2017 y.	2018 y.	2017 y.	2018 y.
Xitoy	61,1	59,1	34,2	21,1	1	1
Rossiya	41,0	51,4	23,0	18,3	2	2
Korea Respublikasi	27,6	39,3	15,4	14,0	3	3
Ukraina	6,0	18,6	3,4	6,6	5	4
Turkiya	9,0	17,0	5,0	6,1	4	5


Latviya	1,0	15,4	0,5	5,5	10	6
Qozog'iston	2,7	13,3	1,5	4,7	7	7
Germaniya	2,8	11,9	1,6	4,2	6	8
Shvetsariya	0,4	9,4	0,2	3,3	12	9
Vietnam	0,1	7,4	0,1	2,6	13	10
Yaponiya	1,3	6,5	0,7	2,3	8	11
Eron	0,8	3,5	0,5	1,3	11	12

Xizmatlar importi tarkibi, (%)




Xizmatlar importi hajmi 14,5 mln. AQSh dollarini yoki jami import hajmining 5,2 %ini tashkil etdi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 85,3 %ga o'sdi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi boshqa ish bo'yicha xizmatlari (72,2 %), texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash xizmatlari (25,4 %)dan iborat bo'ldi.

2018 yilda tovarlar va xizmatlar importi dinamikasi (oylar kesimida, mln. AQSh dollari)



Shu bilan birga ta'kidlab o'tish kerakki, 2018 yilning o'tgan davri mobaynida respublikaga import qilinayotgan tovar va xizmatlar dekabr oyida, noyabr oyiga nisbatan 1,8 mln. AQSh dollarga ko'p import qilingan bo'lib, shundan tovarlar 3,3 mln. AQSh dollarga ko'p import qilingan bo'lib, xizmatlar 1,5 mln. AQSh dollarga kam import qilingan.

Respublika importida asosiy hamkor davlatlarning ulushi (yanvar-dekabr)



2018 yilning yanvar-dekabr oylarida respublikaga 65 dan ortiq xorijiy davlatlardan tovar va xizmatlar importi amalga oshirilgan. Shulardan 6 ta eng yirik bo'lgan Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Koreya Respublikasi, Ukraina, Turkiya va Latvia hamkor davlatlaridan jami import hajmi 200,9 mln. AQSh dollariga teng. Bu esa umumiy import hajmining 71,6 %ini tashkil qiladi.

Yuqorida qayd etib o'tilganidek, import tarkibida asosiy ulushni tashkil qilyotgan mashina va asbob-uskunalar hamda kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar asosan qaysi davlatlardan respublikamizga olib kirilayotganini quyidagi sxemalardan ko'rish mumkin.

Mashina va usbob-uskunalar import qilingan asosiy hamkor davlatlar

DAVLAT NOMI	XITOIY	UKRAINA	LATVIYA	GERMANIYA	SHVETSARIYA
MLN. AQSH DOLL.	52,0	16,4	12,6	11,6	9,4
O'TGAN YILGA NISBATAN, %	107,0	3,1 k	21,0 k	8,9 k	94,0 k
ULUSHI, %	36,1	11,4	8,7	8,0	6,5

Kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar import qilingan asosiy hamkor davlatlar

DAVLAT NOMI	KOREYA RESPUBLIKASI	ROSSIYA	ERON	XITOIY	BELGIYA
MLN. AQSH DOLL.	22,5	2,7	2,5	2,3	1,6

O'TGAN YILGA NISBATAN, %	136,4	73,0	12,5 k	3,3 k	2,7 k
ULUSHI, %	55,4	6,7	6,1	5,6	4,0

Yurtimizda tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va dunyo mamlakatlari bilan olib borilayotgan mustahkam aloqalar natijasida mamlakatimizning eksport salohiyati oshib bormoqda.

Shuningdek, hukumatimiz tomonidan bir qator soliq, bojxona imtiyozlarining yaratilishi, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarilishi milliy mahsulotlarimizni tashqi bozorlarda mustahkam o'rin egallashlari uchun zamin yaratmoqda.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel.:71-230-82-06**